



Conducting types of supervision in a higher education institution

Feruza MATTIYEVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received November 2023

Received in revised form

15 December 2023

Accepted 25 December 2023

Available online

15 February 2024

Keywords:

modernity,
linguistics,
mentalities,
cultures,
translation,
diversity,
traditions,
concepts,
various phenomena,
complexity,
consistency,
similarity,
relevance,
interlingual,
interethnic views.

ABSTRACT

This article provides information about the activities of a professor-teacher who conducted research work in higher educational institutions and conducted training sessions on the relevant subject.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss11/S-pp34-99>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Oliy ta'lim muassasasida nazorat turlarini o'tkazish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

zamonaviy,
tilshunoslik,
mentalitetlar,
madaniyatlar,
tarjima,
ko'p qirralilik,
urf-odatlar,
tushunchalar,

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida nazorat ishlarini o'tkazish hamda tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchining faoliyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

¹ Independent researcher, Samarkand State Institute of Foreign Languages. E-mail: feruzamattiyeva@gmail.com

turli xil hodisalar,
murakkablik,
ketma-ketlik,
o'xshashlik,
dolzarblik,
tillararo,
millatlararo qarashlar.

Проведение видов надзора в высшем учебном заведении

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

современность,
лингвистика,
менталитеты,
культуры,
перевод,
многообразие,
традиции,
концепты,
разные явления,
сложность,
последовательность,
сходство,
актуальность,
межъязыковые,
межнациональные
взгляды.

В данной статье представлена информация о деятельности профессора-преподавателя, который вел научно-исследовательскую работу в высших учебных заведениях и проводил учебные занятия по соответствующему предмету.

KIRISH

Talabalar bilimini baholash 5 ballik tizimda amalga oshiriladi. Oraliq nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Yakuniy nazorat o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. Tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etishi taqiqlanadi. Yakuniy nazorat turini o'tkazishda kelishuv asosida boshqa oliy ta'lim muassasalarining tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchilari jalb qilinishi mumkin. Komissiya tarkibi tegishli fan professor-o'qituvchilari va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi. Komissiya tarkibiga kelishuv asosida boshqa tashkilotlarning soha mutaxassislari ham jalb qilinishi mumkin.

METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim muassasasida nazorat turlarining o'tkazilishi tegishli oliy ta'lim muassasasining ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan doimiy ravishda o'rganib boriladi. Bunda nazorat turlarini o'tkazilish tartibi buzilganligi aniqlangan hollarda, o'tkazilgan nazorat turlarining natijalari bekor qilinishi hamda tegishli nazorat turi qaytadan o'tkazilishi mumkin. Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishi lozim. Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi. Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) ball bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi. Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda, ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

Fanlardan akademik qarzdorligi 4 ta va undan ko'p bo'lgan talabalarga qayta topshirishga ruxsat berilmaydi va ular oliy ta'lim muassasasi rektorining (boshlig'ining, filial direktorining) buyrug'i bilan kursdan qoldiriladi. Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini birinchi marta qayta topshirishdan o'ta olmagan taqdirda, fakultet dekani tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi. Ikkinchi marta oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini o'tkazish va talabani baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Talabalar bilimini baholash tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi tomonidan talabalarning fanlarni o'zlashtirishini hisobga olish jurnalida (bundan buyon matnda Jurnal deb yuritiladi) qayd etib boriladi. Professor-o'qituvchi qo'shimcha ravishda talabalar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.

NATIJALAR

Professor-o'qituvchi jurnalda talabaga qo'yilgan baholarni shu kunning o'zida qayd etib boradi. Agar talabaning bilimini baholash yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, bunda professor-o'qituvchi talabalarning natijalarini 3 kundan ko'p bo'lmagan muddatda jurnalga qayd etishi lozim.

Nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "3" (qoniqarli) yoki "4" (yaxshi) yoxud "5" (a'lo) ball bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi. Talaba nazorat turi o'tkazilgan vaqtda uzrli sabablarsiz qatnashmagan hollarda jurnalga "0" belgisi yozib qo'yiladi. Jurnal tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi, kafedra mudiri va fakultet dekani tomonidan imzolanadi hamda fakultet dekanatida saqlanadi. Jurnalning saqlanishi uchun fakultet dekani mas'ul hisoblanadi. Talabalarning yakuniy nazorat turi bo'yicha baholari jurnalga qayd etilganda, shu kunning o'zida talabaning baholash daftariga ham yozib qo'yilishi kerak. Yakuniy nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan yoki jurnalga "0" belgisi yozib qo'yilgan hollarda, ushbu baho yoki belgi talabaning baholash daftariga yozilmaydi.

Jurnalning o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq yuritilishi, shuningdek, undagi baho va boshqa ma'lumotlarga asossiz o'zgartirishlar kiritilmasligi uchun fakultet dekani va tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi mas'ul hisoblanadi. Tegishli o'quv yili yakuni bo'yicha ishchi o'quv rejadagi fanlar bo'yicha "3" (qoniqarli) yoki "4" (yaxshi) yoxud "5" (a'lo) baho bilan baholangan talaba oliy ta'lim muassasasi rektorining (boshlig'ining, filial direktorining) buyrug'iga asosan keyingi kursga o'tkaziladi. Baholash natijalari kafedra yig'ilishlari, fakultet va oliy ta'lim muassasasi Kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'zlashtirishini baholash tizimini 5 baho yoki 100 ballik tizim va ilg'or xorijiy davlatlar oliy ta'lim tizimida qo'llaniladigan baholash tizimiga qiyosiy taqqoslash hamda ularga o'tkazish mazkur Nizomning ilovaga muvofiq jadvallar asosida amalga oshiriladi.

**Baholashni 5 baholik shkaladan 100 ballik shkalaga o'tkazish
JADVALI**

5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala
5,00 – 4,96	100	4,30 – 4,26	86	3,60 – 3,56	72
4,95 – 4,91	99	4,25 – 4,21	85	3,55 – 3,51	71
4,90 – 4,86	98	4,20 – 4,16	84	3,50 – 3,46	70
4,85 – 4,81	97	4,15 – 4,11	83	3,45 – 3,41	69
4,80 – 4,76	96	4,10 – 4,06	82	3,40 – 3,36	68
4,75 – 4,71	95	4,05 – 4,01	81	3,35 – 3,31	67
4,70 – 4,66	94	4,00 – 3,96	80	3,30 – 3,26	66
4,65 – 4,61	93	3,95 – 3,91	79	3,25 – 3,21	65
4,60 – 4,56	92	3,90 – 3,86	78	3,20 – 3,16	64
4,55 – 4,51	91	3,85 – 3,81	77	3,15 – 3,11	63
4,50 – 4,46	90	3,80 – 3,76	76	3,10 – 3,06	62
4,45 – 4,41	89	3,75 – 3,71	75	3,05 – 3,01	61
4,40 – 4,36	88	3,70 – 3,66	74	3,00	60
4,35 – 4,31	87	3,65 – 3,61	73	3,0 dan kam	60 dan kam

MUHOKAMA

Nazorat jarayonini to'g'ri rejalashtirish, olib borish, samarali mezonlar yaratish, baholash usullarini to'g'ri tanlash va talabalarga natijani e'lon qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq faoliyati turlari va til aspektlarini baholash sub'yektiv va ob'yektiv baholash turlariga bo'linadi. Nutq faoliyatining ikkita turi (yozuv va gapirish)ni baholashda sub'yektivlikni oldini olish maqsadida mezonlar to'g'ri va samarali tuzilishi kerak. Checklist, holistic, analytic, Primary Trait Rubric, Multi-Trait kabi mezon turlari nazorat maqsadidan kelib chiqib pedagog tomonidan qo'llanishi sub'yektivlikni oldini olishni ta'minlaydi. O'qituvchining baholash faoliyati tushunchasi XX asrning 90-yillarida vujudga kelgan. Ammo o'qituvchilarning baholash faoliyati undan oldingi davrda boshlangan desak, mubolag'a bo'lmasa kerak.

V.V. Polikarpova o'z asarlarida o'qituvchilarning baholash faoliyati ustida tadqiqot olib borgan olimlarni ikki guruhga ajratadi. Birinchi guruhga 90-yildan oldingi ishlarini kiritgan bo'lsa, ikkinchi guruhga keyingi davrlarni kiritadi. Ikkala guruhni tahlil qilganda Polikarpova quyidagi natijalarni olgan:

- o'qituvchi faoliyatini tavsiflovchi tushunchalar;
- o'qituvchining baholash faoliyatining maqsadi;
- o'qituvchining baholash faoliyatining funksiyalari;
- ta'lim jarayonida o'qituvchilarning baholash faoliyatining mazmun va mohiyati;
- baholashning ob'yekti va predmeti;
- o'qituvchilar baholash faoliyatining natijalari.

XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan birinchi guruhga Y.B. Zotov, V.V. Davidova, L.M. Fridman, D.B. Elkoninlarning ishlarini kiritish mumkin. Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, bu tadqiqotda asosan – baho va o'qituvchining baholash faoliyati tushunchalari qo'llangan. Olimlar o'qituvchining baholash faoliyatining asosiy maqsadi har bir o'qituvchining o'zlashtirgan mavzu bo'yicha bilimlarini va yakuniy nazoratni baholash deb hisoblagan.

Olimlar baholash faoliyatining asosiy funksiyalari sifatida quyidagilarni ajratadi: ta'lim, tarbiyaviy, diagnostik va nazorat qiluvchi. Olimlarning fikricha, baholash ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilardan mustaqil faoliyatni talab etmaydi, bu o'qituvchilarga bog'liq bo'lgan jarayon bo'lib, u o'qituvchilarning faoliyatiga teng hisoblanadi. O'qituvchilarning baholash faoliyati talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilishdan iborat bo'lib, uning natijasi sifatida talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari baholanadi.

Sh.A. Amonashvili, Y.D. Bojovich, L.I. Bojovich, G.Y. Ksenzova, V.M. Polonskiy, N.V. Seleznev va boshqa olimlarning ta'kidlashicha, bilimlarni baholash jarayoni o'qituvchilarning mustaqil faoliyatidir, ya'ni ularning kasbiy faoliyati, ammo ushbu faoliyatni turli olimlar turlicha atagan. Sh.A. Amonashvilining (80-yillarning oxiri) ta'kidlashicha, baho – baholash jarayonining natijasi va u inson tomonidan amalga oshiriladi. Amonashvili bahoni talabalarda o'zlarining ta'lim jarayonidagi o'sishlarini mustaqil ravishda baholashni o'rgatish deb beradi. Baholash funksiyalari orasida olim stimul beruvchi funksiyaga katta ahamiyat qaratadi. Uning ta'kidlashicha, baholash ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning motivlarini oshirishning eng katta stimulyatoridir. Baholash jarayonida o'qituvchi talabalarning shakllangan va rivojlangan bilim, ko'nikma va malakalarining sifatini baholashi, ularni takomillashtirish yo'llarini ko'rsatishi, nima va qanday qilish lozimligini va qaysi namunaga amal qilishni ko'rsatishi kerak.

V.M. Polonskiy (70-yillar) o'qituvchilarning baholash faoliyatini bilimlarni tizimli baholash jarayoni deb beradi. Baholash jarayonining mohiyatini olim quyidagi komponentlarda ko'radi; ta'limning maqsadini aniqlash, shu maqsadlarga erishilganlikni ko'rsatuvchi nazorat mashqlarini aniqlash, nazorat natijasini ko'rsatuvchi yo'llarni aniqlash. Polonskiyning fikricha, bilimlarni baholash ta'limiy, tarbiyaviy va nazorat qiluvchi maqsadlarga ega. Olim asosiy urg'uni aynan tarbiyaviy funksiyaga qaratadi. Shuningdek, olim nazoratning turli ob'yektlari mavjudligini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, ba'zi o'qituvchilar uchun baholash ob'yekti talabalarning o'zlashtirgan daliliy materiali, boshqalar uchun egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati, yana boshqalar uchun bu bilimni yangi vazifalarni bajarishda qo'llay olish qobiliyatidir. O'qituvchilar baholash jarayonining natijasi talabalarining olgan bahosidir. 1990-yillardan keyin olib borilgan tadqiqotlar ikki guruhga bo'lingan; – umumiy pedagogika hamda – ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishlaridagi tadqiqotlar. Nazariy tahlil natijasida o'qituvchilarning baholash faoliyati oxirgi yillarda quyidagi yo'nalishlarda o'rganilmoqda. Birinchisi: o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini o'rganish bilan bog'liq tadqiqot yo'nalishi (N.V. Kuzmina, Y.V. Piskunova va boshqalar). Ikkinchisi: o'qituvchilarning kasbiy pedagogik ta'limini o'rganish bilan bog'liq tadqiqot yo'nalishi (I.V. Jernov, V.A. Kozqrev, I.S. Lomakina, N.F. Radionova va boshqalar.). Uchinchi yo'nalish: umumiy ta'lim (G.Y. Ksenzova, N.V. Seleznev.). Shu bilan birga o'qituvchilarning baholash faoliyati mualliflar tomonidan mustaqil faoliyat, kasbiy pedagogik faoliyatning bosqichi yoki kasbiy pedagogik faoliyatning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqilgan.

G.Y. Ksenzova o'zining tadqiqotida o'qituvchining baholash faoliyati terminini qo'lladi. Uning fikricha, o'qituvchi baholash faoliyatining maqsadi talabalarda o'z-o'zini mustaqil baholash ko'nikmasini rivojlantirishdan iborat. Olim baholash faoliyatining ob'yekti haqida gapirganda, u o'quvchining individual o'sish jarayonida mustaqil rivojlanishini ko'zda tutadi. Shunday qilib, o'qituvchining baholash faoliyatining natijasi o'quvchining o'z-o'zini adekvat baholashi hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan misollar

bugungi kunda o'qituvchining baholash faoliyatiga turli qarashlar mavjudligini ko'rsatadi. Turli qarashlardan qat'i nazar, ushbu faoliyatning mohiyatini tavsiflovchi omillar mavjud. Ya'ni baholash faoliyati:

- kasbiy pedagogik faoliyatning ajralmas qismidir;
- o'qituvchining kasbiy vazifasidir;
- o'quvchining shaxs sifatida va o'z-o'zini baholashini rivojlantiruvchi faoliyatidir.

Baholash faoliyati o'qituvchining kasbiy faoliyatining bir qismi bo'lib, o'quvchilarning aktiv faoliyatini stimullashtiradi. Bugungi kunda baholashning asosiy maqsadi nafaqat talabalarda o'zlashtirilgan bilimlarni baholash, balki ularda o'z-o'zini baholash ko'nikmasini rivojlantirishdan iborat. Baholash jarayonini samarali olib borish uchun o'qituvchilar baholash kompetensiyasiga ega bo'lishlari lozim. Baholash kompetensiyasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- assesment ob'yektini ajratish (nimani baholash);
- assesment ob'yektini qabul qilish kompetensiyasi;
- assesment ob'yektini baholash mezoni bilan moslashtirish kompetensiyasi;
- assesment turini tanlash kompetensiyasi;
- assesment natijasini talabalarga e'lon qilish kompetensiyasi.

XULOSA

Ta'lim jarayonida erishilgan yutuqlarni, olingan ko'nikma va malakalarni baholash pedagoglarning doimiy vazifalaridan biridir. Afsuski, ishni baholashga kelganda aksariyat o'qituvchilar qiyinchilikka yoxud noqulaylikka duch keladi. Natijada avval qo'llangan testlarni tahlil qilmagan holda qayta qo'llaydi. Testlarning natijasini ko'rish uchun ularni statistik tahlil qilish zarur. Tahlil natijalari testlar o'tilgan material, uni o'zlashtirish jarayoni, o'qituvchining metodikasi haqida ijobiy yoki salbiy ma'lumot beradi. Aynan shu ma'lumotga tayangan holda o'qituvchilar keyingi ishlarini rejalashtirishi va o'zlarining faoliyatini baholashlari ko'zda tutiladi. Afsuski, bugungi kunda o'qituvchilar bu jarayonga juda kam e'tibor qaratmoqda. Baholash jarayoni, natijalari samarali bo'lishi uchun o'qituvchilar baholash kompetensiyasiga ega bo'lishlari, ya'ni – uning asosi, assesment usullarining yaratilishi va qo'llanishi haqida ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Baholash kompetensiyasi nafaqat talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini, balki dars berish jarayonini baholash va talabalarining o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Barchaga ma'lumki, baholash ta'lim berish va ta'lim olish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. U o'qituvchilarga maqsad va vazifalarning o'rinli yoki o'rinsiz bo'lganligi haqida bir qarorga kelishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 11.07.2019-yildagi PQ-4391-son manba Lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, "Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida" 10.10.2018-yildagi 816-son manba Lex.uz
3. Тухтасинов И.М. Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков: Автореферат дисс. ... докт. пед.наук (DSc). – Т., 2018. – С. 45.
4. D.U.Xoshimova – Rus tilining zamonaviy faoliyati va tillararo o'zaro ta'sirlar kontekstida lagunalarni o'rganish uchun lingvodidaktik asoslar: Dis. ... dok. ped. Fanlar. – Toshkent, 2007. -209 b

5. Сафонова В.В. Перевод в контексте изучения иностранного языка в рамках гуманитарно-филологического профиля в старшей школе // Иностранные языки в школе. – №3. – М., 2008. С-176
6. Qudrat Musayev "Tarjima nazariyasi va asoslari" "Fan" nashriyoti 2005-y -305-bet
7. F.M.Rashidova – CEFR asosida chet tillarni o'rganish, o'qitish va baholashda kasb mahorati // Uzluksiz ta'lim jurnali. – T. 2016. –№ 6. – Б. 70-71.
8. Матюшин И.М. Синхронный перевод в многоканальной информационной среде // Вестник МГЛУ. – 2016. – № 11 (750). – С. 23
9. Wasley P. "The Syllabus Becomes a Repository of Legalese". The Chronicle of Higher Education, 2008 – P. 15
10. Saidumar Saidaliyev. Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar. – Namangan, 2004. –240 б.
11. B.A.Raximov, A.Mavlyanov, V.Q. Choriyev, S.R.Abdalov, N.S.Temirova - Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. –Т.; –Fan va texnologiya, 2009. B.125
12. D.A. Qurbanbayev – Bo'lajak chet tili o'qituvchilari nutq omilkorligini nazorat qilish metodikasi: Diss. ped. fan. Nomz. –Т.; 2011. –125 б.
13. Усманова М.Н. Педагогическое тестирование; история развития и современное состояние. –Т;; 1995. –158 б.
14. J.Xasanboyev va boshqalar. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. O'R. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. –Toshkent; – Noshir, 2011. –456b.